



SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE FUNCTIONS OF FOREIGN COUNTRIES' PROSECUTION BODIES

Abrorjon Muhammadjonov

Doctoral Candidate

Institute of State and Law of the Academy of Sciences of Uzbekistan

abrorma1997@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: function, enforcement of laws, legal nature, social function, type of activity, legal control.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of the functions of the prosecutor's offices of foreign countries, information on this area, and the opinions of scientists. In particular, a comparative legal analysis of the functions of the prosecutor's offices of China, Germany, France, Russia, and Portugal will be conducted. It also discusses the types of functions of the prosecutor's office and how they are implemented in different legal systems. At the same time, scientifically based proposals will be developed for the necessary changes in the functions of the prosecutor's office over legislative acts regulating new social relations in the current era of digitalization.

XORIJIY MAMLAKATLAR PROKURATURA ORGANLARI FUNKSIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Abrorjon Muhammadjonov

Tayanch doktoranti

O'zFa Davlat va huquq instituti

abrorma1997@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: funktsiya, qonunlar ijrosi, huquqiy tabiati, ijtimoiy vazifa, faoliyat turi, huquqiy nazorat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlarning prokuratura organlari funktsiyalarini ilmiy-nazariy asoslari, ushbu sohaga oid ma'lumotlar hamda olimlarning fikrlari asosida tahlil qilinadi. Xususan, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Portugaliya

mamlakatining prokuratura organlari funksiyalari qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. Shuningdek, prokuratura organlari funksiyalari turlari va turli huquqiy tizimlarda qanday amalga oshirilishi mohokama qilinadi. Shu bilan birga, bugungi raqamlashtirish davrdagi yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari ustidan prokuratura organlari funksiyalaridagi amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'zgarishlarga ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФУНКЦИЙ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Аброржон Мухаммаджонов

докторант-соискатель

Институт государства и права Академии наук Узбекистана

abrorma1997@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: функция, исполнение законов, правовая природа, социальная задача, вид деятельности, правовой надзор.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы функций органов прокуратуры зарубежных стран на основе информации, относящейся к данной сфере, а также мнений ученых. В частности, проводится сравнительно-правовой анализ функций органов прокуратуры Китая, Германии, Франции, России и Португалии. Также рассматриваются виды функций органов прокуратуры и их реализация в различных правовых системах. Кроме того, разрабатываются научно обоснованные предложения по изменениям функций органов прокуратуры, которые необходимо внести в законодательные акты, регулирующие новые общественные отношения в современную эпоху цифровизации.

Kirish. Bugungi kunda Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va davlat manfaatlarini himoya qilish kabi asosiy funksiyalarni bajaradi. Ushbu funksiyalarining samaradorligi mamlakatda huquqiy barqarorlik va ijtimoiy tartibni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, globallashtirish davrida yangi-yangi ijtimoiy munosabatlar vujudga kelmoqda, ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish hamda sun'iy intellektni huquqiy maydon olib kirilishi natijasida

ularni faoliyati ustidan nazorat qilishda prokuratura organlarining funksional faoliyatida o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Prokuratura organlari faoliyatiga ilg'or ish uslublarini va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, qonunlar ijrosi ustidan nazorat mexanizmlarini muntazam takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va tergov ishiga zamonaviy ilm-fan hamda amaliyot yutuqlarini tatbiq etish, xodimlarning bilim darajasi va ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ularning fidokorona mehnatini munosib qadrlash kelgusida ham e'tiborimiz markazida bo'ladi[1].

Asosiy qism.

Kanyazeya.E.G. fikricha, Xorijiy mamlakatlarda prokuratura faoliyati, uning ushbu mamlakatlar qonunchiligi bo'yicha holatiga oid eng so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda dunyoda prokuraturaning tashkil etilishi, vakolatlari va vazifalarini belgilaydigan yagona tizim mavjud emas. Xorijiy mamlakatlarda prokuratura uzoq rivojlanish davrida mamlakatning tarixiy shart-sharoitlari, davlat mexanizmi va iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan. Prokuratura funksiyalarining kengayishi, uning mazmunli faoliyatiga qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning aralashmasligi uning rivojlanishidagi umumiy tendensiya hisoblanadi[2].

Prokuratura organining faoliyat yo'nalishlari uning vazifalarini bajarish orqali amalga oshiriladi. Aynan shu yo'nalishlar prokuratura organlari faoliyatining asosiy mohiyatini tashkil etadi. Prokuratura organining vazifalari - bu uning ijtimoiy maqsadidan kelib chiqadigan, vazifalarida aks etadigan va unga berilgan vakolatlar, huquqiy vositalar hamda tartib-qoidalaridan foydalanishni talab etadigan faoliyat turlaridir. Prokuratura organining vazifalari ro'yxati, ixtiyoriy ravishda belgilanmasada, balki uning ijtimoiy roli va maqsadlari bilan aniqlanadi, ammo bu ro'yxat o'zgarmas emas. Xususan, davlat tuzilishi va mohiyatining o'ziga xos xususiyatlari, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga qarab, vazifalarning mazmuni ham o'zgarib boradi. Mustaqil faoliyat turlari hisoblangan vazifalardan farqli o'laroq, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa turdagi turli omillar ta'sirida shakllanadi.

Yuqorida ma'lumotlar kelib chiqib, prokuratura organlarining funksional vakolatlari doimiy emasligini hamda ma'lum sharoitlar ta'sirida o'zgarishi mumkinligini xulosa qilish mumkin. Masalan, Ukrainada mamlakat konstitutsiyasi va qonunlari davlatda prokuratura tizimini yaratdi. Bu tizimga sudda davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlash, fuqaro yoki davlat manfaatlarini sudda ifodalash, tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni olib boruvchi organlar tomonidan qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish, shuningdek jinoyat ishlari bo'yicha sud qarorlarining ijro etilishida va fuqarolarning shaxsiy erkinligini cheklash bilan bog'liq boshqa majburlov choralarini qo'llashda qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilgan[3].

Prokuraturaning tabiati va ko'lami bo'yicha ikki huquqiy tizim o'rtasidagi eng muhim farq birinchi navbatda uning tabiati va funksiyalaridadir. Prokuraturaning tabiatiga kelsak, ba'zi xitoy olimlari kapitalistik mamlakatlarda prokuratura davlat ayblovi organi, sotsialistik mamlakatlarda esa huquqiy nazorat organi, deb hisoblaydilar va buni kapitalistik va sotsialistik prokuratura tizimlari o'rtasidagi tub farq deb bilishadi. Bu xulosa, aslida munozarali, chunki davlat ayblovi prokuratura tomonidan o'z zimmasiga oladigan ko'plab funksiyalardan biri hisoblanadi. Tergov va sud nazorati funksiyalarini davlat ayblovinining zaruriy tayyorgarligi va kengayishi deb hisoblash mumkin bo'lsada, sud qarorlarini nazorat qilish va ijro etish, fuqarolik ishlari bo'yicha sud ishlariga aralashish va huquqiy maslahatlar berish funksiyalari hech qanday holatda davlat ayblovinining ushbu ta'rifi bilan qamrab olinmaydi[4].

Murayev ta'kidlaganidek, "Prokuraturaning vazifasi - bu davlat mansabdor shaxslari o'z funksiyalariga ko'ra, birinchi navbatda, sud-huquq sohasida qonun nazoratchisi va jamoat manfaatlari, shuningdek davlat organlari vakillari sifatida xizmat qilishdan iborat". Xususan, turli kontinental huquq tizimlarida prokuratura funksiyalarining ta'riflarini birma-bir ko'rib chiqamiz. Fransiyada Bosh prokurorning asosiy mas'uliyati "mamlakatning umumiy huquqni muhofaza qilish faoliyatini nazorat qilishdir".

Fransiya prokuraturasi tergov, ayblov, davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlash va jinoyat protsessida jinoiy hukmlarning ijrosiga rahbarlik qilish funksiyalarini amalga oshirishdan tashqari boshqa vazifalarni ham amalga oshiradi.

Xususan, quyidagi masalalar bo'yicha ham keng ko'lamli nazorat vakolatlarini amalga oshiradi:

Sud yordamchi xodimlari ustidan nazorat;

Sud organlari faoliyatini nazorat qilish;

Uy xo'jaligini ro'yxatga olish bo'yicha mansabdor shaxslarni nazorat qilish;

Davlat psixiatriya shifoxonalari ustidan nazorat qilish kabi bir qancha funksiyalarni amalga oshirgan.

Germaniya prokuraturasi huquqiy nazorat va milliy qonunlarning bir xilda bajarilishini ta'minlash bo'yicha ham muayyan funksiyalarga ega. Tergov, sud muhokamasi va jinoyat protsessining ijrosi ustidan keng qamrovli nazoratdan tashqari, advokatlarning huquqni muhofaza qilish faoliyatining qonuniyligi ustidan ham muayyan nazorat majburiyatlari yuklanadi.

Portugaliya prokuraturasi ham nisbatan keng nazorat funksiyalariga ega. Portugaliya prokuraturasi tog'risidagi qonunida prokuratura vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Sud mansabdor shaxslarining ishini nazorat qilish;

O'z vakolatlari doirasida sudlarning mustaqilligini ta'minlash va sud funksiyalarining konstitutsiya va qonunlarga muvofiq bajarilishini nazorat qilish;

Apellyatsiya shikoyati ustidan nazorat qilish;

Konstitutsiyaviy sudning konstitutsiyaviy qonunlarning konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qilish;

Respublika Bosh prokurori Konstitutsiyaviy sudga konstitutsiyaga zid bo'lgan har qanday qoidalarni e'lon qilishni so'rashi mumkin.

Chen Yongsheng ta'kidlashicha, "Davo yurituvchi organ sifatida", kontinental huquq mamlakatlarida prokuraturaning funksiyalari kengroq bo'lib, uni "huquqiy nazorat organi" sifatida belgilash maqsadga muvofiqroqdir, chunki ko'pgina kontinental huquq mamlakatlari qonunlari prokuraturaga keng huquqiy nazorat vakolatlarini bergan, umumiy huquqli mamlakatlarda esa, odatda, bunday qoidalar mavjud emas.

Marina Stefanchuk ta'kidlashicha, prokuraturaning davlat manfaatlarini sudda ifodalash vazifasini amalga oshirishning istisnoli holatlarini konstitutsiyaviy belgilash usuli shuni ko'rsatadiki, qonun chiqaruvchi organ bu holatlarni faqat muayyan maxsus qonun doirasida cheklab qo'yishni ko'zlamaydi va ularni boshqa qonunlar me'yorlarida mustahkamlash imkoniyatini istisno etmaydi. Bu bugungi kun talablariga javob beradi, chunki bunday holatlarning ro'yxatini oldindan aniqlab bo'lmaydi, balki ular muayyan tarixiy davrda himoyaga muhtoj manfaatlarga muvofiq vaziyatga qarab belgilanishi lozim. Oxir-oqibat, muayyan holatning istisnoligi masalasi sud tomonidan prokurorning davlat manfaatlarini sudda ifodalash uchun asoslari mavjudligini tasdiqlash jarayonida hal etiladi[5].

V.P. Ryabsevning fikricha, prokuratura funksiyasi uning ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadigan faoliyat turi bo'lib, prokuraturaning vazifalarida o'z ifodasini topadi. Bu faoliyat turi maxsus yuritish predmeti bilan tavsiflanadi, mazkur vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan hamda o'ziga xos vakolatlar, vositalar va tartib-qoidalarni talab etadi[6].

V.P. Ryabsev boshqa faoliyat turlari orasida funksiyalar sifatida avvalo prokuraturaning ijtimoiy vazifalari bilan belgilanadigan faoliyatni nazarda tutgan.

Prokuratura funksiyalaridan boshqa faoliyat turlarini ajratib ko'rsatgan:

kadrlar siyosati;

prokuratura organlari tizimini boshqarish, moliyaviy va moddiy-texnik ta'minot, ichki tizimli nazorat va boshqalar.

Davlat o'z organlarini birinchi navbatda o'ziga xos bo'lgan funksiyalarga asoslanib tuzadi, bu funksiyalarni o'z xohishiga ko'ra tashkil etilgan davlat organlariga yuklaydi. Bunday yondashuvning boshqaruv funksiyasi mavjudligini ta'kidlovchi muxoliflari bo'lsada, I.A. Terentyev prokuratura funksiyalariga aynan uning davlat apparatidagi vazifasidan, ya'ni prokuraturaning ijtimoiy maqsadidan kelib chiqadigan faoliyat turlarini kiritish lozimligini ta'kidlaydi[7].

Prokuratura vazifalarini faqat qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish bilan cheklash noto'g'ri. Bunday nuqtayi nazar prokuratura faoliyatining barcha ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlarini noto'g'ri tahlil qilishdan kelib chiqadi.

K.A. Grigorov ta'kidlaganidek, bunday yondashuv ko'p jihatdan 1979-yil 30-noyabrdagi "SSSR Prokuraturasi to'g'risida"gi SSSR qonunida funksional yondashuvning yo'qligi bilan bog'liq edi.

Prokurorning boshqa barcha ishlari huquqni – himoya qiluvchi organlarning jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish, qonunchilikni takomillashtirishda ishtirok etish, sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlash - bularning barchasi faqat qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishning bir turi sifatida qaralgan[8].

Prokuratura faoliyatining shunchalik ko'p yo'nalishlari V.D. Lomovskiyning quyidagi funksiyalar mavjudligi haqidagi fikrini tasdiqlashga asos bo'ldi:

nazorat, jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etish;

qonuniylik holatini o'rganish, huquqbuzarliklarga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, bu ishlarni boshqa organlar va tashkilotlar bilan muvofiqlashtirish[9].

A.D. Berenzon esa nazorat, kriminologik, kriminalistik, huquq ijodkorligi va huquqiy tarbiya funksiyalari mavjud, degan xulosaga kelgan[10].

V.I. Roxlin va I.I. Sidoruk prokuraturaning asosiy funksiyasi mavjudligini, u ikki yo'nalishdan iborat ekanligini ko'rsatadi: qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish hamda inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish[11].

Xiong Xianjue ta'kidlashicha, Prokurorlik funksiyasi davlat funksiyasining ajralmas qismidir. "Davlat funksiyalari dastlab bo'linmagan, jazo esa harbiylardan kelib chiqqan. Sud hokimiyati ma'muriy hokimiyatdan bosqichma-bosqich ajratilgandan so'ng, prokuror hokimiyati sud hokimiyatidan ajratilgan[12].

Vu Jianxiong fikricha, Umumiy nuqtai nazar shundan iboratki, prokuror funksiyasining asl maqsadi jinoyat tergov va jinoiy sudlovni nazorat qilish va cheklash edi. Chet el nuqtai nazaridan, prokuratura tizimi tashkil etilishi bilanoq prokurorlar qonuniy javobgarlikni o'z zimmlariga oldilar (Masalan, Fransiya va Germaniya kabi yirik kontinental huquqiy tizimlar prokurorlarga jinoiy adliya tizimini qo'riqlash bo'yicha nazorat funksiyasini bergan. Ayblov ishlarini olib borishda prokurorlar politsiyaning, huquqiy va boshqa sud ishlarini nazorat qiladi). Milliy ijtimoiy boshqaruv kontseptsiyasi va usullarining o'zgarishi bilan prokuratura organlari asta-sekin davlat hokimiyati va fuqarolar huquqlarini muvozanatlash rolini o'ynadi[13].

Si Tszinpin ta'kidlaganidek, "Biz davlat hokimiyati ustidan nazorat va cheklovni kuchaytirishimiz, davlat hokimiyati qo'lida bo'lgan idora va tashkilotlarni hokimiyatni oqilona taqsimlashga, ilmiy asosda taqsimlashga, mas'uliyat va vakolatlarni qat'iy belgilashga, hokimiyat

va mas'uliyat ro'yxati tizimini takomillashtirishga, institutlar, funksiyalar, vakolatlar, tartiblar va javobgarlikni qonuniylashtirishni tezlashtirishga undashimiz kerak". Qarorda prokuror hokimiyatining sud hokimiyati, nazorat va ma'muriy hokimiyatlar bilan muvofiqlashtirilishi va nazorat qilinishiga alohida urg'u berilgan. (Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jinoiy sudlov o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmini takomillashtirish, jinoyat ishini qo'zg'atish, tergov va sud muhokamasi faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, jinoyat ishlarini yuritishda prokuratura va nazorat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishni kuchaytirish, jinoyat ishlarini nazorat qilish organlarini takomillashtirish taklif etiladi. Huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik ishlari bo'yicha sud nazoratini aniq amalga oshirish, ma'muriy prokuror nazoratini har tomonlama chuqurlashtirish, jamoat manfaatlarini ko'zda tutuvchi sudlov ta'qibini faol va barqaror rag'batlantirish, sud nazorati ish mexanizmini takomillashtirish.[14]" .

Hokimiyat ustidan hokimiyatning bunday nazorati jinoiy ta'qib qilish, fuqarolik ta'qibi, ma'muriy ta'qib qilish va jamoat manfaatlarini himoya qilish orqali amalga oshiriladi.

Asosan, jinoiy va fuqarolik ta'qiblari noqonuniy jinoiy tergov va sudlovlarni nazorat qilish va cheklash orqali davlat jinoiy sud hokimiyatining tartibsiz amalga oshirilishi yoki hatto suiiste'mol qilinishining oldini olishga, shu bilan jinoiy tergov va sudlov vakolatlarining qonuniy va standartlashtirilgan ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Jinoyat prokuraturasi, xususan, qamoqqa olishlarni tasdiqlash, jinoiy javobgarlikka tortishni qayta ko'rib chiqish, jinoiy ish qo'zg'atish, protest keltirish ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu harakatlar qaysidir ma'noda jinoyat ishlarini tergov qilishning qonuniyligi va standartlashtirilishi, dalillarning yetarliligi, qamoqqa olish va jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi iltimosnomalarning maqsadga muvofiqligi, jinoyat ishlari bo'yicha ish yuritishning me'yoriy va qonuniyligi, sudlanganlik hukmi va hukmlarining maqsadga muvofiqligi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlaydi. Bundan tashqari, qo'zg'atilishi lozim bo'lgan ishlarni qo'zg'atmaslik, fuqarolik va xo'jalik nizolarini hal etishga jinoiy vositalarni qo'llash, advokatlarning o'z da'vo huquqlarini qonuniy amalga oshirishiga to'sqinlik qilish, sud muhokamasida protsessual yoki moddiy huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, shuningdek, jinoyat ishlarini qonunga xilof ravishda o'zgartirish, shartli ravishda ozodlikdan mahrum qilish, jinoiy hibsonalarda vaqtincha ozodlikdan mahrum qilish holatlari, shu jumladan, tavsiya va nazorat choralari orqali hal etiladi. Jinoyatchilikka qarshi kurash va inson huquqlarini himoya qilishning institutsional qiymatini bajarish. Fuqarolik prokuraturasi nazorati sudlarning fuqarolik ishlari bo'yicha hal qiluv qarori va ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, sudga da'vo qilish huquqi buzilgan tараflarni o'z vaqtida himoya qilishni ta'minlaydi, Fuqarolik kodeksining yagona va to'g'ri bajarilishini ta'minlaydi. Fuqarolik prokuraturasi nazorati esa o'ziga xos huquqiy xususiyatlarga ega bo'lib, vakolatni cheklovchi va huquqlarni himoya qiladi[15].

M.A.Magomedov tomonidan “prokuror funksiyalari” va “prokuratura tomonidan bajariladigan funksiyalar” tushunchalarining bir xil emasligini ko‘rsatadi[16]. Shu bilan birga, prokuror funksiyalari bir-biridan prokuror ta’sirining obyekti va predmeti kabi mezonlar bilan farqlanishini asoslaydi. Prokurorning huquqiy munosabatlardagi faoliyati va maqomi. Ushbu asoslarga ko‘ra, muallif Rossiya prokuraturasining to‘rtta asosiy funksiyasini ajratib ko‘rsatadi:

prokuror nazorati funksiyasi;

prokurorni sud ishlarini yuritishda ishtirok etish;

prokuror bilan o‘zaro hamkorlik qilish funksiyasi(hokimiyat va jamiyat institutlari);

prokurorlik profilaktikasi funksiyasi(huquqbuzarliklar)[17].

Boshqa tadqiqotchilarning fikricha, prokuratura faoliyatining qonun bilan belgilangan yo‘nalishlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, prokuratura vazifalariga quyidagilarni kiritish lozim:

nazorat faoliyati;

jinoiy ta’qib;

huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish;

barcha turdagi sud ishlarini yuritishda qatnashish;

ma’muriy ta’qib va xalqaro miqyosda hamkorlik qilish[18].

Birinchi navbatda ta’kidlash joizki, xorijiy prokuratura organlarining tashkiliy tuzilishi, faoliyati va tegishli ravishda vazifalari “to‘plami” bo‘yicha umumjahon standartlari mavjud emas. Umumlashtirib aytganda, tadqiqotchilar shuni qayd etadilarki, Daniya, Meksika, Shvetsiya va Norvegiyada prokuratura ijro hokimiyati organi hisoblanadi. Fransiya, Germaniya va Belgiyada esa prokuratura ijro va sud hokimiyatlari orasida oraliq mavqeni egallaydi, u Adliya vazirligiga bo‘ysunadi, biroq prokurorlar sudyalarning tarkibiga kiradi yoki sudlar huzurida faoliyat yuritadi. Bolgariya va Ispaniyada prokuratura sud hokimiyatiga tegishli deb hisoblanadi[19].

Shunday bo‘lsada, deyarli barcha davlatlarda prokuratura vazifalari orasida jinoyat ishlari bo‘yicha ayblovni qo‘llab-quvvatlash mavjud. Ya’ni, xalqaro amaliyotda prokuratura organlariga ko‘pincha juda cheklangan soha –jinoyat-huquqiy faoliyat yuritish vazifasi yuklatilgan[20].

Xulosa. Yuqorida ma’lumotlar hamda olimlarning fikrlariga tayanib prokuratura organlari funksiyalarining ilmiy-nazariy asoslariga quyidagi xulosa va takliflarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchidan, dunyoda prokuratura organlari funksiyalarining belgilaydigan yagona mezonning yo‘qligi mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning har xilligi, tarixiy shart-

sharoitlari, davlat mexanizmi va iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilganligi bilan bir-biridan ajralib turadi;

ikkinchidan, xorijiy mamlakatlar prokuratura organlari funksiyalar huquqiy tizimlar bo'yicha biri-biridan farq qiladi. Xususan, anglo-sakson huquqiy tizimida prokuraturaning asosiy funksiyasi davlat ayblovinini qo'llab-quvvatlash. Roman-german huquqiy tizimida prokuraturaning funksiyalari kengroq. Prokuratura organlari umumiy huquq nazoratini amalga oshiradi. Ya'ni ular faqat davlat ayblovinini amalga oshirish bilan cheklanib qolmaydi. Xususan da'vo organi sifatida ham ko'plab funksiyalarni amalga oshiradi;

uchinchidan, prokuraturaning asosiy funksiyasi mavjudligini, u ikki yo'nalishdan iborat ekanligini ko'rsatadi: qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish hamda inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ta'minlashdan iborat;

to'rtinchidan, bugungi kundagi raqamlashtirish davrida yangi ijtimoiy munosabatlar huquqiy maydonga olib kirilmoqda bu esa o'z navbatida ushbu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishni taqozo etmoqda, natijada ushbu o'zgarishlarga mos ravishda prokuratura organlarning funksiyalari o'zgartirish hamda yangi funksiyalarni tadbiq etish maqsadga muvofiqdir;

beshinchidan, prokuror funksiyasi bilan prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan funksiyalar bir-biridan farqli ekanligi ularning obyektiga hamda tartibga solish predmeti bo'yicha farq qilishi ilmiy asoslanib berildi

oltinchidan, prokuratura funksiyalarini amalga oshirishda raqamli texnologiyalarni keng tadbiq etish ushbu sohadagi faoliyat samaradorligini ta'minlash hamda ushbu tizimdagi ochiqlik siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prokuratura organlari xodimlari va faxriylariga.
<https://president.uz/oz/lists/view/6961>.

2. Князева Е.Г. Прокурорский надзор в зарубежных странах.

3. Oleksandr.Svitlichny. Functions of the Prosecutor's Office in the mechanism of ensuring the rights and freedoms of citizens, the of interests society and the state.
<https://journals.uran.ua/journal-vjhr/article/view/299809>.

4. 宋英慧、陳永勝：普通法系與大陸法系國家檢察院制度比較。
<https://cacpl.chinalaw.org.cn/portal/article/index/id/5331/cid/20.html>

5. Марина Стефанчук. Представницька функція прокуратури: актуальний концепт судової практики.

6. Российский прокурорский надзор. М., 2001. С. 59–60.

7. I.A.Terentyev. Procurator's office functions.
<https://cyberleninka.ru/article/n/funktsii-prokuratury>.
8. Григоров К.А. Функции и направления деятельности прокуратуры Российской Федерации в современных условиях// Журн. «Российское право в Интернете». № 2004 (02).
URL: <http://www.rpi.msal.ru/prints/200402advocacy1.html>
9. Ломовский В.Д. Стадии прокурорского надзора: понятие, значение, система // Прокурорский надзор и укрепление социалистической законности в Советском государстве. Л., 1984. С. 63–64
10. Берензон А.Д. Об основных направлениях деятельности прокуратуры // Проблемы организации деятельности прокурорской системы в свете Закона о прокуратуре СССР. М., 1981. С. 31.
11. Рохлин В.И., Сыдорук И.И. Отрасли и направления прокурорской деятельности // Прокурорский надзор в Российской Федерации / подред. В.И. Рохлина. СПб., 2000. С. 76.
12. 熊先覺, 劉雲仙. 中國司法制度研究[M]. 北京: 法制出版社..
13. 吳建雄 | 新時代加強檢察法律監督的歷史、理論與實務邏輯.
14. 習近平. 在新起點上深化國家監察體制改革[J]. 求是 2019
15. 吳建雄 | 新時代加強檢察法律監督的歷史、理論與實務邏輯.
16. Магомедов М. А. Доктринальная модель системы функций прокуратуры Российской Федерации // Пробелы в российском законодательстве. 2018. № 2. С. 192–196
17. С. Н. Махина. Функции прокуратуры в системе функций современных государств: российский подход и сравнительно-правовой анализ.
18. Капинус О. С. Законность : состояние и тенденции в 2010–2014 гг. Деятельность прокуратуры по ее обеспечению : науч. докл. / под общ. ред. О. С. Капинус. М., 2015. С. 63.
19. Боботов С. В. Правосудие во Франции. М., 1994.
20. Поторыкина Е. Ю. Уголовно-процессуальный статус прокурора в судопроизводстве европейских государств // Социально-экономические явления и процессы. 2015. Т. 10, № 12. С. 132–136.